

# Termizda Vatan himoyachilari kuni bayram tadbirlari “Motamsaro ona” haykali poyiga gulchambarlar qo‘yish bilan boshlandi



Termizda Vatan himoyachilari kuni bayram tadbirlari “Motamsaro ona” haykali poyiga gulchambarlar qo‘yish bilan boshlandi

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi va Vatan himoyachilari kuni Surxondaryo viloyatida ham katta ko‘tarinkilik bilan nishonlanmoqda.

Jumladan, bugun Termiz shahridagi Xotira maydoni har qachongidan gavjum bo‘ldi. Bu yerga Surxondaryo viloyati hokimligi, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, ofitser, serjant va harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlarimiz faxriylari hamda keng jamoatchilik vakillari tashrif buyurdi.

Image not found or type unknown

Tadbir ishtirokchilari harbiy orkestr musiqasi ostida "Motamsaro ona" haykali  
poyigulchambarlar qo'yib, Vatanimiz tinchligi, xalqimiz o'qoyishtaligi yo'lida jon fido  
qilgan yurtdoshlarimizni yod etdilar.






Image not found or type unknown







Image not found or type unknown

